



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# IJTIMOIIY BOSHQARUV

e l e k t r o n   i l m i y   j u r n a l

2021/6 (1)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan  
2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat  
ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash va gender tengligiga  
oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy  
tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alikhanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukarram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**SODIQOVA Shohida Markhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор*

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Абдураманов Хамид Худайбергеневич** – *доктор экономических наук, профессор.*

**Бегимкулов Узокбой Шоимкулович** – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Фарфиев Бахромжон Аткамджанович** – *доктор социологических наук, доцент.*

**Ишкuvatov Валикул Турдыевич** – *доктор исторических наук, профессор.*

**Карамян Мариэтта Хачатуровна** – *доктор психологических наук, профессор.*

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Нурматова Мукаррам Ахмедовна** – *доктор философских наук, профессор.*

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – *доктор юридических наук, профессор.*

**Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна** – *доктор юридических наук, доцент.*

**Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна** – *доктор философии юридических наук (PhD).*

**Содикова Шохид Мархобаевна** – *доктор социологических наук, профессор.*

**Зокидов Азаматджон Азамович** – *доктор экономических наук, профессор.*

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alikhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Sodikova Shokhida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**MAHALLA VA MENEJMENT**

<b>Narbayeva T.K.</b> Ayollarni har tomonlama himoya qilish jamiyatning muhim vazifasiga aylandi .....	4
<b>Qodirxonova M.A.</b> O‘zbekistonda zo‘ravonlikka qarshi kurash: xalqaro tajriba va yechim.....	10
<b>Egamberdiyeva N.M.</b> Mahalla va oila institutlarining mustahkamligi jamiyat farovonligi kafolatidir .....	18
<b>Musurmanova A.M.</b> Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari rahbarlarining kompetentligi – faoliyat samaradorligining omili.....	25
<b>Atamuratov M.U.</b> O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida boshqaruv kadrlarining o‘zini o‘zi rivojlantirish tizimini joriy etish .....	35

**JAMIYAT VA OILA**

<b>Ismailova Z.K.</b> Yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish komponentlari.....	47
<b>Abduramanov X.X.</b> Qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlari .....	59

**XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI**

<b>Saydivaliyeva X.X.</b> Xotin-qizlarning huquqlarini ta’minlash – ularning huquqiy madaniyatini shakllantirishning muhim omili .....	71
<b>Xoliqova M.K.</b> Zamonaviy ilmiy paradigma konteksti hamda XXI asr kompetensiyalari tizimida gender sensitivlik.....	80
<b>Каримова Д.М.</b> Социологический «портрет» женской безработицы в условиях пандемии (на примере Узбекистана) .....	94

**IJTIMOY PSIXOLOGIYA**

<b>Shoumarov G‘.B.</b> Sharqona qadriyatlar va islom dinida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari.....	105
<b>Alimardonov Z.Sh.</b> O‘smirlik davrida deviant xulq-atvor shakllanishiga muammoli oilalarning ta’siri.....	112
<b>Abdusamatov X.</b> Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	121

**IJTIMOY PEDAGOGIKA**

<b>Reves I. Ruziyeva G.</b> Родительская компетентность как педагогическая проблема .....	131
<b>Baratova Sh., Zoxitova N.</b> Structure and content of career guidance system in USA... ..	140

**YOSH TADQIQOTCHILAR MINBARI**

<b>Nabiyeva O.R.</b> Reproduktiv yoshdagi ayollarda kayfiyat o‘zgarishining sabablari va ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	147
---	-----



**Narbayeva Tanzila Kamalovna,**  
*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Raisi,  
Respublika Gender tenglikni ta'minlash masalalari  
bo'yicha komissiyasi raisi,  
sotsiologiya fanlari doktori*

## AYOLLARNI HAR TOMONLAMA HIMOYA QILISH JAMIYATNING MUHIM VAZIFASIGA AYLANDI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan qonunlar va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida so'z boradi.*

**Аннотация.** *В данной статье говорится о законах и мерах, принятые для защиты и всесторонней поддержки женщин от угнетения и насилия.*

**Annotation.** *This article discusses the laws and measures taken to protect and fully support women from oppression and violence.*

**Kalit so'zlar:** *gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash.*

**Ключевые слова:** *гендерное равенство, защита семьи, материнства и детства, развитие женского предпринимательства, улучшение условий труда и жизни.*

**Key words:** *gender equality, protection of the family, motherhood and childhood, development of women's entrepreneurship, improvement of working and living conditions.*

Taraqqiyotga yuz tutayotgan har qanday mamlakat o'z oldiga yetakchilar qatoriga qo'shilishni maqsad qilar ekan, xalqaro demokratik hamjamiyat tomonidan o'rnatilgan muayyan standartlarga rioya qilishi, o'z qonunchiligi va taraqqiyot dasturlarini ham ularga moslashi zarur bo'ladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000-yildan beri har yili 25-noyabr kuni "Gender zo'ravonliklariga qarshi faol 16 kun" deb nomlangan kampaniyaga start beriladi hamda mazkur kampaniya Xalqaro inson huquqlari kuni nishonlanadigan 10-dekabrda yakunlanadi.

Jumladan, **Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyaning (CEDAW) 2-moddasi** barcha mamlakatlardan: "...zudlik bilan barcha tegishli usullar orqali xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish siyosatini yurgizish"ni<sup>1</sup> talab qiladi. Bu bilan "xotin-qizlarni kamsitadigan biror-bir xatti-harakatni amalga oshirishdan tiyilish, davlat organlari va muassasalarining ushbu majburiyatga muvofiq faoliyat ko'rsatishlariga kafolat berish"; "xotin-qizlarni kamsituvchi mavjud qonunlar, qarorlar, urf-odatlar va amaliyotni o'zgartirish yoki bekor qilish uchun barcha tegishli choralarni, shu jumladan, qonunchilik choralari ko'rish" majburiyatini yuklaydi.

Hatto eng konservativ jamiyatlar ham gender tenglik zaruratini tan olayotgan bugungi kunda bu omil taraqqiyotimiz, shu jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishimizning zaruriy shartiga aylandi. Bunda xotin-qizlarga nisbatan kuch ishlatish, ayniqsa, oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish eng muhim vazifalar qatoriga qo'yildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oilaviy mojarolar va sodir etilayotgan holatlar natijasida buzilib ketayotgan oilalar muammolari mavjudligi va bundan ko'proq ayollar aziyat chekayotganini inobatga olgan holda, ularga ko'rsatiladigan psixologik, tibbiy va ruhiy reabilitatsiya yo'nalishlarida amaliy chora-tadbirlar kuchaytirildi. Xotin-qizlar huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularga yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash borasida shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, opa-singillarimizga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish borasida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan

***Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyaning (CEDAW) 2-moddasi***

<sup>1</sup> Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha qo'mita, umumiy mazmundagi 19 tavsiya, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik (1992, 11-sessiya), Inson huquqlari bo'yicha kelishuv organining umumiy izoh va tavsiyalari to'plami, BMT hujjatlari HRI/GEN/1/Rev.1 at 84 (1994).

***Joriy yilda  
mamlakatimizda  
oiladagi  
zo‘ravonliklarning  
oldini olish tizimini  
takomillashtirish  
bo‘yicha 8 ta  
normativ-huquqiy  
hujjat qabul  
qilingani ham  
buning amaliy  
isbotidir.***

himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni<sup>2</sup> qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda zo‘ravonlikka “xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarni qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)” deb ta’rif berilgan.

Bundan tashqari xotin-qizlarga har tomonlama ko‘maklashish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani bois ham turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo‘lmagan, ijtimoiy himoyaga, huquqiy va ma’naviy-psixologik qo‘llab-quvvatlashga ehtiyojmand xotin-qizlarga manzilli yordam ko‘rsatish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim – “Ayollar daftari” joriy qilindi. Shuningdek, gender tenglikka erishish haqiqiy demokratik qadriyatlarining ajralmas qismi sifatida eng ustuvor maqsadlarimiz qatoriga qo‘yildi va bu jihat mamlakatimizning yangi taraqqiyot yo‘lini belgilab bergan barcha dasturiy hujjatlarga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan inson qadri ustuvor bo‘lgan yangi O‘zbekistonda ayol qadri – ona qadri alohida o‘ringa ega.

Joriy yilda mamlakatimizda oiladagi zo‘ravonliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 8 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingani ham buning amaliy isbotidir.

Davlat rahbarining 2021-yil 19-maydagi “Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori zo‘ravonlikka uchragan ayollarga yordam ko‘rsatish tizimini yaratish, oilaviy-maishiy zo‘ravonlikning oldini olish va uning salbiy oqibatlariga barham berishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Zero, shu qaror asosida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida 29 ta Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari tashkil etildi. Shu vaqtgacha bu markazlar nodavlat notijorat tashkiloti sifatida faoliyat yuritib kelgan bo‘lsa, endilikda ular Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

O‘z navbatida, Hukumat tomonidan 2021–2022-yillarda oilaviy va maishiy zo‘ravonlikning oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi joriy yilning aprel oyida oilada zo‘ravonlikning oldini olish hamda jabr ko‘rganlarga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqladi. Uning ijrosini ta‘minlash maqsadida vakolatli davlat idoralari rahbarlari darajasidagi ishchi guruh faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Sog‘liqni saqlash hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirliklari tomonidan “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga tibbiy-ruhiy yordam ko‘rsatish” bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi yaratilgani ham e‘tiborga molik.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki shunga moyil bo‘lgan xotin-qizlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish, tezkor ruhiy, psixoterapevtik va huquqiy yordam ko‘rsatish, maslahat berish va axborot taqdim etish maqsadida “1146” raqamli ishonch telefoni “AZIZ-AYOL.UZ” yagona interaktiv milliy platformasi bilan muvofiqlashtirildi.

Adliya vazirligi tomonidan esa xotin-qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan onlayn o‘quv kurslari ishlab chiqilib, barcha bemalol foydalanishi mumkin bo‘lgan “kurslar.huquqiyportal.uz” elektron platformasiga joylashtirildi.

Zo‘ravonlik nima o‘zi? Bu haqda avval hech kim bizga gapirmagan.

Ayolga nisbatan uning turmush o‘rtog‘i yoki ish joyida rahbar tomonidan, shuningdek, boshqa joylarda amalga oshiriladigan harakatlar, shunchaki “tabiiy holat”dek qabul qilinib kelgan. Bu narsaga hech kim zo‘ravonlik sifatida qaramagan. Qolaversa, ayollarning o‘zlari ham ushbu holatlarga ko‘nikkan edi.

Deylik, turmush o‘rtog‘i unga qo‘l ko‘tardimi, demak, bu shunday bo‘lishi kerak. Axir u oila boshlig‘i, u bunday qilishga haqli. Ya‘ni ayol itoatkor mavjudot sifatida bu narsalarning barchasini hazm qilavergan.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, qayerda bo‘lishidan qat‘i nazar, ijtimoiy tuzilmalar va madaniy an‘analar, jamiyat, shu jumladan, patriarxal jamiyatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan madaniy an‘analar, me‘yorlar va qadriyatlar bilan chuqur ildiz otgan va ko‘pincha inkor etish va sukut saqlash madaniyati bilan davom etib kelmoqda.

Xotin-qizlarga qarshi qaratilgan zo‘ravonliklarning ko‘pchiligi oilada va oilaviy zo‘ravonlik shaklida namoyon bo‘ladi. Oilaviy zo‘ravonlik butun dunyoda keng tarqalgan va har qanday millat vakillariga, ularning ijtimoiy qatlami va ma‘lumoti darajasidan qat‘i nazar, xos bo‘lgan hodisadir. Zamonaviy tadqiqotchilar zo‘ravonlik faqat ijtimoiy noqobil oilalardagina sodir bo‘ladi, degan tasavvurlarni jamoatchilik ongida shakllangan afsona, deb hisoblaydilar.

***Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki shunga moyil bo‘lgan xotin-qizlar bilan o‘zaro aloqa o‘rnatish, tezkor ruhiy, psixoterapevtik va huquqiy yordam ko‘rsatish, maslahat berish va axborot taqdim etish maqsadida “1146” raqamli ishonch telefoni “AZIZ-AYOL.UZ” yagona interaktiv milliy platformasi bilan muvofiqlashtirildi.***

***Ayolning  
muntazam  
zo‘ravonlikka  
duchor bo‘lishi,  
uning hayotini xavf  
ostida qoldirishi  
mumkin***

Zo‘ravonlik muhokama uchun juda murakkab predmet bo‘lib, uning qurbonlari ko‘pincha sukut saqlashga majbur bo‘ladilar. Ular bunday muammolarni uydan tashqariga olib chiqmaslikka harakat qilishadi. Aksariyat holatlarda zo‘ravonlik qurboni sharmandalik va turli gap-so‘zlardan qo‘rqib, jim yurishga majbur bo‘ladi. Bunday vaziyatda qolgan ayollarning indamasligiga bir necha sabab bo‘ladi. Kimlardir moliyaviy yordamsiz qolishdan qo‘rqsa, boshqalari farzandlari va o‘z hayoti uchun xavfsiraydi. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayol har tomonlama qiyin holatda qoladi. Ayniqsa, hatto eng yaqin insonlari ham bu muammoni hal qilishdan o‘zini olib qochadi. Ayollar izolyatsiya, mehnatga layoqatsizlik, ish haqini yo‘qotish, odatdagi ishlarda qatnashmaslik va o‘zlari hamda farzandlariga g‘amxo‘rlik qilish qobiliyatining cheklanishidan aziyat chekishi mumkin. Oxir-oqibat bu doimiy qo‘rquv, depressiya, o‘z joniga qasd qilish kabilar bilan tugamoqda.

Bu jarayonda mentalitet, an‘analar va shu vaqtgacha yillar davomida shakllanib kelgan stereotiplar ham rol o‘ynagan, albatta. Hech kim ayol oilada xuddi erkak singari haq-huquqlarga ega degan gapni aytmagan. Albatta, o‘zbekona milliy urf-odatlarimizda turmush o‘rtog‘iga bo‘lgan hurmat nazarda tutiladi. Muqaddas Qur‘oni Karimda ham ota-onaga, aka-ukaga, qolaversa, ayolga bo‘lgan hurmat borasida yozilgan. Lekin yillar davomida bu an‘analar buzib kelingan. Bu esa oqibatda oilalarda ajrimlar, o‘z joniga suiqasdlar soni ko‘payishiga olib kelgan. Aynan o‘zbekona urf-odatlarimiz, mentalitetimiz tufayli ayollarimiz bu haqda kimgadir “yorila” olmagan.

Ayolning muntazam zo‘ravonlikka duchor bo‘lishi, uning hayotini xavf ostida qoldirishi mumkin. Bu ruhiyat buzilishi, asabiylik va buning oqibatida ayolning muntazam zo‘ravonlikka duchor bo‘lishi, uning hayotini xavf ostida qoldirishi mumkin. Bu ruhiyat buzilishi, asabiylik va buning oqibatida organizmning butkul buzilishi demakdir. Qolaversa, bu holat farzandlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xotin-qizlarga qaratilgan zo‘ravonlikning har qanday shakli va turi bu jamiyatga hamda uning ravnaqiga qarshi qaratilgan tahdiddir. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik tarixiy jihatdan erkaklar va ayollar o‘rtasida teng bo‘lmagan kuchlar muvozanatining namoyon bo‘lishidir, natijada ayollar ustidan hukmronlik, kamsitishlar yuzaga keladi. Zo‘ravonlik ayollarning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi; ayollarga nisbatan zo‘ravonlik bu – ayollarning erkaklarga nisbatan bo‘ysunuvchi pozitsiyani egallashga majbur bo‘lishiga olib keladigan mexanizmlardan biri.



Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash hamda hayotga moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda bu sohada faoliyat olib borayotgan har bir mutaxassisdan kuchli bilim, mahorat, psixologik va individual yondashuv talab qilinadi. Shuni yodda tutish kerakki, qaysi jamiyatda ayol qadrlanar ekan, oilalar farovon, farzandlar tarbiyasi to‘la-to‘kis bo‘ladi. Bu esa kelajakka tomon yorqin yo‘ldir.

Zero, davlatimiz rahbari o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi kitobida ta’kidlaganidek, “Ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat baxtlidir”<sup>3</sup>. Shunday ekan, bugun yurtimizda har bir yo‘nalish bo‘yicha islohotlar olib borilayotgan bir paytda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifaga aylanishi kerak.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 249.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mita, umumiy mazmundagi 19 tavsiya, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik (1992, 11-sessiya), Inson huquqlari bo‘yicha kelishuv organining umumiy izoh va tavsiyalari to‘plami, BMT hujjatlari HRI/GEN/1/Rev.1 at 84 (1994).*
2. *O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://www.lex.uz/>*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 249.*

“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «МАХАЛЛЯ И СЕМЬЯ»  
“MAKHALLA AND FAMILY” RESEARCH INSTITUTE

---

# IJTIMOIY BOSHQARUV

## СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ

### SOCIAL MANAGEMENT

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

1/2021

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash va gender tengligiga oid barcha ijtimoiy  
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni  
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»  
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,  
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных  
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and  
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific  
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions  
of makhalla, family and gender equality*

---

**MUASSIS:**

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Namozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagi materiallaridan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 12.11.2021.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 5,1.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

«SANBOOK EXCLUSIVE PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangiheyot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.